

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Sh.D.Xonbabayev

Bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda milliy va umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirishga tayyorlashning tarkibiy tuzilishi va yo'nalishlari227

M.S.Xoshimov

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalq o'yinlari orqali kommunikativ kompetentligini takomillashtirishning metodologik asoslari231

IQTISODIYOT**X.X.Bozarov**

Kichik biznes subyektlarida iqtisodiy inqirozga qarshi kurashish strategiyasini takomillashtirish235

U.X.Gulmatov

O'zbekiston milliy transport tizimining iqtisodiy asoslari239

FALSAFA**M.M.Abduraxmonova, D.O.Akramov**

Umumta'lim maktablarida xavf guruhidagi oila farzandlarini ijtimoiylashuvida mahalla ijtimoiy xodimining ahamiyati246

Q.Sulaymonov

O'rta asr Islom Sharqi allomalarining gnoseologik va teologik qarashlarining qiyosiy induksiyasi253

X.A.Yulbarsova

Integrativ yondashuv asosida bo'lajak sotsiologlarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari258

I.A.Asatulloev

Alfred Adlerning qalb konsepsiyasida inson kamolotining ijtimoiy omillar bilan shartlanganligi264

I.A.Suvanov

Axborot jamiyatida insonni kutayotgan yangi muammolar xususida ayrim mulohazalar268

M.Y.Ergashov, Z.I.Narziyev

Qomusiy alloma Abu Bakr Muhammad Zakariyo ar-Roziyning ma'naviy va ilmiy merosi273

M.K.Soipova

Yoshlar dunyoqarashini shakllantirishda fan va islom qadriyatlari tushunchasining mazmun mohiyati277

I.B.Toshpo'latov

Jamiyat taraqqiyotida filantropik harakatning ahamiyati281

3.C.Касимова

Цифровизация и гуманитарное образование: сотрудничество и инновации284

SIYOSAT**Z.Sh.Turg'unboyev**

O'zbekiston Respublikasining Afg'onistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni mo'tadillashtirishda xalqaro maydondag'i tashabbuslari290

O'.N.Ahmedova

Davlat va jamiyat boshqaruvida rahbar kadrlar ma'naviyatini yuksaltirish zarurati296

M.T.Musayev

Globallashuv sharoitida missionerlikning ijtimoiy-siyosiy munosabatlarga ta'siri300

G.S.Ro'ziyeva

Madaniyat va milliy xavfsizlik sohasida davlat siyosatini belgilashning o'ziga xosligi305

TARIX**B.X.Matboboyev, A.A.Aloxunov**

O'zbek-Xitoy qo'shma xalqaro arxeologik ekspeditsiyasining Mingtepa shahar xarobasida olib borgan ilmiy izlanishlari natijalari xususida311

J.Sultonov

Chingizxonning markazlashgan davlatga asos solishida ittifoqchilik va diplomatiyaning roli318

X.X.Azimov

Qadimgi Xitoy manbalarida Usun davlati329

J.Z.Axmedov



УО'К: 2/9:297

O'RTA ASR ISLOM SHARQI ALLOMALARINING GNOSEOLOGIK VA TEOLOGIK QARASHLARINING QIYOSIY INDUKSIYASI

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ГНОСЕОЛОГИЧЕСКИХ И ТЕОЛОГИЧЕСКИХ ВОЗЗРЕНИЙ СРЕДНЕВЕКОВЫХ ИСЛАМСКИХ МЫСЛITЕЛЕЙ ВОСТОКА

COMPARATIVE INDUCTION OF GNOSEOLOGICAL AND THEOLOGICAL VIEWS OF MEDIEVAL ISLAMIC EASTERN THINKERS

Sulaymonov Qurbonali

Farg'onan davlat universiteti dotsenti

Annotatsiya

Maqolada islam teologiyasining shakllanishi, unga ta'sir ko'ssatgan omillar, islam teologik qarashlarida gnoseologik muammolar tasnifi, islam gnoseologiyasining teologik manbalari, o'rta asrlar islam olamidagi gnoseologik va teologik qarashlarning o'zaro sintezi, ularning ilohiy bilishga doir qarashlarining o'xshash va farqli jihatlari tadqiq qilingan. Shuningdek maqolada o'rta asr sharq allomalarining gnoseologik va teologik qarashlarining falsafiy komprativistikasi qiyosiy induksiyalash usosida ochib berilgan.

Аннотация

В статье исследуется становление исламского богословия, факторы, оказавшие на него влияние, классификация гносеологических проблем в исламских теологических воззрениях, теологические источники исламской гносеологии, взаимный синтез гносеологических и теологических взглядов в средневековом исламском мире, сходные и различные аспекты их взглядов на божественное знание. В статье также раскрывается философская компретивистика гносеологических и теологических воззрений средневековых восточных алломантов на основе метода сравнительной индукции.

Abstarct

The article explores the formation of Islamic theology, the factors that influenced it, the classification of gnoseological problems in Islamic theological views, theological sources of Islamic gnoseology, the mutual synthesis of gnoseological and theological views in the medieval Islamic world, similar and different aspects of their views on divine knowledge. The article also reveals the philosophical comprativistics of the gnoseological and theological views of medieval eastern allomas on the basis of the method of comparative induction.

Kalit so'zlar: din, islam, islam falsafasi, teologiya, gnoseologiya, epistemologiya, genoseologik muammo, kospriativchitska, qiyosiy induksiya, bilish, bilim.

Ключевые слова: религия, ислам, исламская философия, теология, гносеология, эпистемология, геносеологическая проблема, коспративистика, сравнительная индукция, познание.

Key words: religion, Islam, Islamic philosophy, theology, gnoseology, epistemology, genoseological problem, comprativistics, comparative induction, cognition, knowledge.

KIRISH

O'rta asr Sharq allomalarining gnoseologik qarashlari qadimgi yunon ilmlari asosida vujudga kelgan falsafiy ilmlarning turli yo'nalishlarini – matematika, fizika, geografiya, kimyo kabilalar, shuningdek, falsafa, mantiq, ahloq kabilarni rivojlanishi asosida shakllanib borgan bo'lsa, islomiyl ilmlar, aniqrog'i arab ilmlari sifatida islam teologiyasi bo'lmish kalom ilmi, hadisshunoslik, shariatga asoslangan fiqh – huquqshunoslik, Qur'oni tafsirlash kabi masalalarni, shuningdek, arab tili va grammatiskasi, arablar tarixi (islomdan so'nggi) kabilalar asosida islam teologiyasi shakllani va bir davr va muhitda o'zining takomil bosqichiga chiqqan bu yo'nalishlar o'zaro bir biriga ta'sir ko'ssatgan va o'zaro bir biriga singib ketgan.

Ilohiyot falsafasi – kalom, so'ng hadisshunoslik, fiqh – huquqshunoslik, Qur'on tafsiri islam teologiyasining shakllanishida muhim o'rin egallagan va sof diniy masalalardan tashqari turmushning barcha jihatlarini qamrab olgan.

O'rta asrda islam falsafasining shakllanishi, yunon falsafasi asosida gnoseologik qarashlarning rivojlanishida al-Kindiyning hizmatlari yuksak bo'lgan. Mutafakkir Abu Yaqub ibn Ishoq

al-Kindiy o'zining gnoseologik qarashlarida haqni va haqiqatni bilishda falsafaning o'rnni yuqori baholab, "Birinchi falsafa" asarida unga "insonning toqati yetguncha narsalar haqiqatini bilish ilmi" deb tarif benrgan. Uning fikricha, "haqiqat izlovchi uchun hech bir narsa haqiqatning o'zidan qimmatroq emas". O'rta asr Sharq gnoseologik izlanishalrida birinchilardan bo'lib fanlar tasnifini al-Kindiy ishlab chiqqan. U ilmiy bilishning uch bosqichi haqidagi ta'lilotni shakllantirdi. U birinchi bosqichni mantiq va matematika; ikkinchi bosqichni fizika (aniq fanlar); uchinchi bosqichni esa metafizika bilan bog'liq bilim, deb hisobladi[1]. Al-Kindiyga ko'ra, ratsional qismi hisoblangan fanlarning vujudga kelishi bilan islom dunyosida ko'proq aqliy mushohadaga murojaat qiladigan bo'lgan. Bungacha mu'tazila guruhi tufayli haqiqatlarni kashf etish va diniy ahkomlarni asoslashgan aqliy mushohada va ratsional muhokamalardan foydalanish boshlangan edi. Mu'taziliylar oqimi islom teologiyasida ratsionalizm tarafdoi sifatida ma'lumdir. "Ular Kur'on va hadislarni zohiriyl tomondan sodda anglashdan yuqori ko'tarilib, aqliy muhokamalarga tayangan holda dinni himoya qila oldilar"[2]. Natijada, ham islom teologiyasining ratsional asoslari ham mustahkamlanib borda.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI

O'rta asr Sharq teologiyasida ham ma'lum bir qarama-qarshiliklar va baxs-munozarali masalalarni o'zida ifoda etgan oqimlar ham shakllangan va ularning faoliyati ham islom ilmiy rivojlanishiga sezilarni ta'sir ko'rsatadi. Shu ma'noda biz islom ilohiyotidagi turlicha yondashuvlarni yagona ta'lilotning dogmalashuvi deb ayta olmaymiz. Bu jarayonni anglash uchun Ibn Rushd falsafasi bilan tanishish lozim. Uning ikki haqiqat nazariyasi keyinchalik islom ilohiyotida tabiiy-ilmiy hamda ijtimoiy bilimlar hoyasini ishlab chiqshda diniy va ilmiy bilimlarni uyg'unlashtirishda muhim vosita bo'lgan. O'z navbatida bilishning bu ikki shakli bir-biriga halal bermasligi kerak degan g'oya ustuvor ahamiyat kasb etgan. Chunki ular bir maqsad – haqiqatni topish va unga erishish yo'lida harakat qiladilar degan yondashuv konseptual ahamiyatga ega edi. "Ikki haqiqat nazariyasi" mutakallimlar bilan mu'taziliylar, aql bilan e'tiqod o'rtasida kelishuv vujudga kelganligidan darak beradi. Chunki keyingi davr musulmon xalqlari tarixidan o'r'in olgan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning negizi uning asosiga qurilganini ko'rish mumkin. "Ikki haqiqat" tarafdarlarining qarashlaridagi bunday xulosalar aslida qadimgi yunon faylasufi Aflatun falsafasiga asoslanar edi. Agar Aflatun falsafasida narsalar dunyosidan oldin, unga nisbatan birlamchi, o'zgarmas mohiyatga ega bo'lgan "g'oyalar dunyosi" mavjudligi e'tirof etilsa, unda bu o'zgarmas mohiyatni anglab yetishning ham ikki yo'li mavjuddir, deb ishonch bildiradi[3].

Ibn Rushd Aflatun gnoseologiyasi ta'sirida quyidagi xulosaga keladi: Bu dunyoning o'zgarmas mohiyati alohida qobiliyatga ega, o'ta sezgir odamlarning faoliyati orqali anglab olinadi. Buning ikkinchi yo'li esa, kishilar tomonidan mohiyatning hosilasi bo'lmish, narsalar dunyosini tashkil etuvchi voqeа va hodisalarning o'zaro aloqadorligi, sifat hamda xossalari o'rganish asosida ham mohiyatni anglab olish mumkin.

Ibn Rushd yunon falsfasini sodda tilda tushuntirib bera olgani va unga yangicha yondashuvlarini qo'yanligi bilan ahamiyatlidir. Uni ilmga bo'lgan munosabati va ilm olish mashaqqati to'g'risidagi qarashlari chuqur mazmunga ega. YA'ni, Ibn Rushd rahimahulloh umrida faqat ikki kecha dars qilmagan ekan: birinchisi – otasi o'lgan kecha, ikkinchisi – uylangan kechasi. U kitob mutolasiga qattiq berilgan edi, qo'liga tushgan Kitobni o'qimay qo'ymasdi. Ilmga chanqoqligidan kitoblarni javoni bilan ijaraq olib o'qirdi. Ibn Rushdnинг ilmiy salohiyati, diniy va dunyoviy ilmlar bo'yicha bilimi uning ilmga qanchalik mas'uliyatli bo'lganligini ko'rsatadi. Bu har bir inson uchun namuna bo'la oladi. Agar ilm egasi o'z nafsini haqiqatda tiyib, unga lozim ishni qila olsa, do'stlarining malomati va dushmanlarning tahqiridan saqlanadi. Shunda ilm fazilat ustiga go'zal himoya va poklik izzatini jamlaydi va o'z fazilatlari tufayli haqli bo'lgan martabaga erishadi[4]. Demak, ilm rivojiga ilm olish uchun ijtimoiy munosabatning o'zgarishi kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Abu Nasr Forobiy falsafiy ta'liloti Allah olamning yaratuvchisi, degan tasavvurga asoslanadi. Ammo, shuni ta'kidlash zarurki, Forobiy mustaqil fikrlash va falsafaning o'rganish predmeti sifatida teologlarga o'xshab Allohn yoki e'tiqodni emas, balki aql mavzusini asos qilib oladi. M.Xayrullayev fikricha, Forobiyning aql tabiatiga va ilmiy-nazariy tafakkur mohiyatiga nisbatan qarashlari teologik so'fiylik ta'lilotlariga butunlay qarama-qarshidir[5]. Boshqa bir yondashuvga ko'ra, "Forobiy inson aqli va borliq birligining dialektikasini ochib berdi, - deydi A.Qosimjonov, - ammo bu dialektik yondashuv obyektiv idealistik tushunchaga asoslangan bo'lib, unga avval abad – ilohiy aql g'oyasi singib ketgan"[6]. Bu holatni Forobiyning aql bosqichlari to'g'risidagi qarashlarida yaqqol ko'rish mumkin. Uning aql to'g'risidagi ta'liloti bilish nazariyasining ratsionalistik xarakterini ko'rsatadi, shuningdek, bilish nazariyasini tahlil qilishda markaziy o'r'in egallaydi. Forobiy

FALSAFA

gnoseologiyasi, insonning bilish qobiliyatları, aql quvvatlarini tushuntirish masalalari garchi fanni ulug'lash, falsafani dindan ajratish, ilmiy bilimlarni mistik, diniy tasavvurlar ta'siridan qutultirish, tabiatni o'rganish, bilimning ilmiy usullarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lsa-da, ayrim mistik tomonlardan xoli emas edi. Forobiy islom dinini falsafiy jihatdan asosladi, aql masalasini hamaynan shu yo'nalihsiga qartilgan holda tushuntirdi.

Forobiyning ratsionalistik fikr bilan diniy-mistika o'rtasida tutgan yo'lini uni aql to'g'risidagi falsafiy ta'lomitini tadqiq qilish orqali aniqlash kutilgan natija beradi. Uning "Haqiqatga faqat shuur va ong(aql) tufayli erishiladi" degan so'zlaridan bu masalani oydinlashtirish mumkin. Uning fikricha, aql eng avvalo ruhiy xususiyatga ega bo'lib, bilim va idrokni Birinchi sababdan – Allohdan oladi. Bu jarayonni Forobiy quyidagicha izohlab beradiki, unda panteistik g'oyalar mavjud, ya'ni alloh taolo – birinchi borliq, o'z javharida (substansiyasida) ham bo'linmas, yagona ekanligini ta'kidlaydi. Insonning borliqqa kelishi bilan dastlab o'rta ga tushgan narsa shu bo'ldiki, unda u o'zini boqadigan quvvat paydo qildi, - deydi Forobiy, - ... islomda aql quvvati maydonga chiqdi, bu bilaninson aqli qabul qiladigan narsalar ma'qulotni bilmak imkoniga erishadi[7].

Forobiy gnoseologiyasida olamiy aql, insonni xudo bilan bog'lovchi kulliy faol aql to'g'risidagi mistik mulohazalar mavjud, ammo, mutafakkir aqlning bir tomonidan, ruhiy jarayon ekanligini va ikkinchi tomonidan, aql tashqi ta'sirning, ta'lum-tarbiyaning mahsuli ekanligini e'tirof etadi.

Mutafakkir fikricha, aql garchi kelib chiqishi bilan Birinchi sabab – Oliy zotga bog'liq bo'lsada, rivojlanish davomida u faqat insongagina xos bo'lgan tug'ma quvvat sifatida namoyon bo'ladi. Bu masaladagi ziddiyat shundaki, aql fahmlash, muhokama qilish, o'ylab topish, fikrlash quvvatiga tug'ilishdan boshlab ega bo'ladi, ammo, ularningqanday vujudga kelganini o'zi ham bilmaydi, bu xususiyatlar odamning o'sib, kamolga yeta borishi bilan rivojlanib boradi.

Forobiy inson aqli bilan borliqning dialektik birligini, garchi idealistik tarzda bo'lsada ochib beradi. aql va borliqning birligi – ilohiy aqlida, degan g'oya bu ta'lomitga singib ketgan. Forobiy inson aqlini oddiy "oy osti dunyosi" da yashovchilar xarakatining sabachisigina emas, balki "faol" aql yerdagи olamning ichki tabiatiga xos, bu olamning qonuniyatidir, deb tushuntiradi. Alohidayodamning, individning aqli uzuksiz ravishda samoviy aql bilan qo'shilgandagina rivojlanadi. Samoviy aql abadiy. Individ aqli o'tkinchi, o'limga mahkum. Shu masalalar doirasida "faol" aqlning mohiyati va ahamiyati ko'rib chiqiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Islomiy falsafa va ilohiyot ilmiga ko'ra, bilishning oliy darajasi ilm-al-yaqindir. Bu esa haqiqatga eng yaqin ilmdir. Haqiqatga eng yaqin ma'nosida bu xristianlik teologiyasidagi – haqiqatni bilish ma'nosida qo'llaniladi. Ismoiliya tariqati vakillari bu iborani tasavvuf falsfaasi ruhida, imyon ma'nosida ilm al-haqiqat yoki ma'rifat al-haq deb aytadilar. Farobiy falsafasida garchi aql Allah yaratgan mahsul sifatida qaralsa-da, ammo aql Allah bilan o'zaro sababiy-oqibat munosabatida bo'ladi. Demak, Allah aqlni, o'z erki, xohishi yoki talabi bilan, tasadifiy emas, balki qat'iy zaruriyat natijasida yaratgan. Ushbu xulosa xukmron islom ideologiyasi bilan sig'isha olmas edi. Shu tufayli Forobiy bu o'rinda juda nozik yo'nalihsiga yondashuvlar topa bilgan. Uning fikricha, Xudoning bilimiga nisbatan odamlarning bilimlari cheklangan, lekin aziz-avliyolar, payg'ambarlar va ulamolarga ilohiy bilishlar ham ato qilingan. Mutafakkir dinga jiddiy munosabatda bo'lib, shariatning zohiriyligi tomoniga qarshi chiqish o'rniga, uning botiniy mohiyatiga falsafiy ma'no berdi. Forobiy o'zining "Al-huruf" (Harflar) asarida shunday deydi: "Agar din barcha umumiy jihatlari bilan takomillashadigan falsafaga itoat etsa, unda u haq va to'g'ridir. Ammo agar din to'g'ri tahliliy falsafa hali shakllanmay, balki halq tafakkuri, g'oyasi bo'lgan ritorika (balog'at san'ati, so'zamollik), dialektika (bahs) va sofistika (har qanday vosita bilan bo'lsa ham raqibni so'zda lol qoldirish) bilan band bo'lgan davrda paydo bo'lsa, bunday falsafaga bo'ysungan din ham yolg'on va xatolardan xoli bo'lmaydi. Ko'p hollarda u boshidan oxirigacha noto'g'ri bo'lib chiqadi. Falsafa dinga nisbatan ham birlamchi mavqega ega, chunki falsafa – mag'z, din – po'stloq, aniqrog'i – falsafaning qurolidir". Uning fikricha, din juda katta ahamiyatga ega. Zero, bir tomonidan uning mohiyati yana o'sha oliy falsafadir, boshqa tomonidan esa shariat insoniyat jamiyatni mavjudligi va ijtimoiy tartib barqarorligi uchun falsafa singari zarur. Forobiy uchun asosiy tayanch analitika (tahlil va tadqiq)ga qurilgan falsafadir. Uningcha, haq din bilan haqiqiy falsafa birdir. Forobiy fikricha, "mavjudot haqidagi bilim qo'liga kiritilsa, shu haqda ta'lum berilsa, mavjudotdan bo'lgan narsaning zoti bilinsa, narsaning ma'nosi tushunilsa, ishonchli dalil-hujjatlar asosida shu narsa haqida miyada bir turli ishonch va tasavvur paydo bo'lsa, mana shu ma'lumotga doir fanni falsafa deymiz"[8]. Haqiqatan ham "falsafa

voqelikdagi barcha narsa va hodisalarning eng umumiy aloqadorligi va rivojlanish qonuniyatlarini, ularning tub mohiyatini bilishga qaratilgan fandir”[9]. Faqt falsafa – xoslarga tegishli, dinning tili esa xoslarga ham, avomga ham tushunarlidir.

Abu Nasr al-Forobiy o‘zining “Ixso al-ulum” (“Fanlar tasnifi”) asarida gnoseologik va teologik bilimlarning umumiy tizimini keltiradi. Unda fiqh va kalom ustunlik qiluvchi falsafiy bilimlarni to‘Idiruvchi ilmlar qatoriga kiritilgan[10]. Forobiyshunos olim M.M. Xayrullayevning fikriga ko‘ra, Forobiy falsafiy ta’limotining o‘zi “mohiyat-e’tibori bilan an’naviy ilohiyot – kalomdan tubdan farq qilib, ilmiy g‘oyalar bilan yo‘g‘rilgan”[11]. Bu tasnifning tahvilidan quyidagi xulosalar kelib chiqadi: dunyoviy bilimlar (ilmilar) qonuniy mavqega ega; “fan” tushunchasining ishlab chiqildi va alohida fanlar o‘ziga hos xususiyatlarga ega. Forobiy tasnifida muhim ahamiyat kasb etuvchi yana bir jihat bu - bilimlarning amaliy va nazariylarga ajratilishi bo‘lgan. Amaliy bilimlar - insонning farovonlikka yetishtiruvchi faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘lsa, nazariy bilimlar inson va uning faoliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan, ya’ni umumiy tushunchalar mohiyatini bilish bo‘lib, maqsadi haqiqatni izlashdan iborat bo‘lgan.

Forobiyning fikriga ko‘ra, har bir san’atning o‘zining qonunlari mayjud. Bu qonunlardan foydalanish – san’at mohiyatini tashkil etadi, lekin qonunlarning o‘zi fanning bilish obyektiidir. Forobiyning “Fanlar tasnifi” asarida “usullar haqidagi fan” tushunchasi uchraydi. Bu usullarga maydonlarni o‘lchash, astronomiya, musiqa uchun asbob-uskunalar yaratish va h.k. Lekin Koinot, samoviy jismalar, Yer, Oy, Quyosh harakatlari, fizika tamoyillari, inson va hayvonlar tanasi organlari, ularning vazifalari, musiqa garmoniyasining mohiyatini o‘rganish fan vazifasidir. Falsafa esa “fanlar fani” sifatida, san’atdan farqli o‘laroq, fanning umumiy tushunchasini ifoda etadi. “Bilim” haqidagi tasavvurni aniqlashtirish, uni differensiatsiya qilish va ilmiy usulurni ishlab chiqish jarayonida faylasuflar yuqorida qayd etilgan “san’at”, “fan” va falsafa predmetlarini farqlashga, tadqiqot usullarini ishlab chiqish, haqiqiy bilim va uning ishonchliligining asoslari, belgilari va meyorlarini izlashga harakat qilishdi.

Dastlab “ilm” ilohiy bilim, ilohiy mohiyat (Alloh mohiyatini ifodalovchi xususiyat, uning atributi) sifatida tushunilgan, inson undan ma’naviy oziqa oladi va u uning hayot tarzini belgilaydi, ya’ni u Allah haqidagi bilimdir. Alohida fanlar esa bu umumiy bilimning sohalaridir (masalan, ilm al-kalom, ilm al-fiqh va h.k.). Forobiyning ta’kidlashicha, ““Ilm” so‘zi fizika bo‘yicha mutaxassis va ruhoniylar uchun umumiy ma’noga ega,” lekin “ruhoniy kishi narsalar tabiati haqida bilimga ega emas, bunday bilimga, falsafaning tarkibiy qismi bo‘lmish, fizika bo‘yicha mutaxassis egadir. Shuning uchun ikkalasining ham bilimlari bir-biriga ziddir”[12]. Demak, IX asrda dunyoviy bilimlar sohasida “ilm” atamasidan umuman bilim, masalan, mantiqni bilish, ma’nosida foydalilanigan. Keyinchalik “bilim” tushunchasi “fan” tushunchasiga aylanib boradi hamda falsafada bilim va imonni farqlashga olib keladi.

Boshqa bir alloma Abu Ali ibn Sinoning gnoseologik qarashlari ham o‘rtta asr Sharq falsafiy fikri, teologik dunyoqarashni va yondashuvlarni rivojlanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Ibn Sino barcha falsafiy ilmlarni ikki qismga bo‘ladi: nazariy va amaliy. Bunda nazariy qismning maqsadi – haqiqatni bilish; amaliy qismning maqsadi – saodatga erishishdir. Falsafiy fanlar, Ibn Sino ta’kidicha, ikki turga bo‘linadi: birinchisi bizning shaxsiy xatti-harakatimiz bilan tanishtiradi va u “amaliy ilmlar” deb nomlanadi. Chunki bu bilimlarning foydasi, biz bu dunyoda najot topishga umid qilishimiz uchun, undagi ishlarimiz tartibli bo‘lishi uchun kerak bo‘ladi. Ikkinchisi esa bizni ruhiyatimiz shakllanishi va bu dunyoda baxtli bo‘lishimiz uchun narsalar olamining holatini bizga anglatadi. O‘z o‘rnida tushuntiriladigan bu ilm nazariy deb nomlanadi[13].

Abu Ali ibn Sinoning gnoseologik qarashlarida aql va uning imkoniyatlari, ilohiy borliqni anglashdagi o‘rni va boshqa masalalar kuchli asoslar bilan asoslangan. Uning fikricha, aql ilohiy olamdan, farishta vositasida yetkaziladi. Bu dalilga ko‘ra, farishtani bilish jahonni bilish asosi hamda undagi inson o‘rnini belgilash ham ilm vazifasiga kiradi. Falsafaning mohiyati borliqni o‘z zotiga ko‘ra zarur bo‘lgan vujudga va undan boshqa zarur vujudga taqsimlash ekanligi Forobiy asarlarida qayd qilingan edi. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, xilqat “maktabi”ning tasavvuri o‘z asosiga ko‘ra butunlay o‘zgarib, zaruriyatga aylanadi. Xilqat bir martalik tasodify yoki azaldagi iroda emas, balki ilohiy zaruratdan kelib chiqadi. Xilqat ilohiy andisha ruhidan kelib chiqadiki, o‘zini o‘ylaydi. O‘zida abadiy ilohiy vujudga ega bo‘lgan ilm birinchi aql bilan ayni zamonda sodir bo‘lgan narsadan o‘zga narsa emas. Bu yagona oqibat va bunyodkor quvvatning boshlanishi ilohiy andisha bilan bir narsadir. Yagonalikdan ko‘plikka o‘tish, yagonadan boshqa yagonalarga o‘tish qoidasiga rioya qilish orqali yuz beradi.

FALSAFA

XULOSA

Xulosa qilganda, o'rta asrlar Sharq gnoseologiyasi va teologik qarshlari rivojlanishi asosida falsafa bilan din o'rtasidagi muammolarga bir qator yechimlar shakllanadi. Diniy aqidalar qobig'ida bo'lса ham, ilmiy ahamiyatga ega jonli va keskin fikrlar aytilib, tabiatdagi ashyolar sirini ochishga jiddu-jahd qilindi. Va bu davr mutafakkirlari tomonidan borliq bilan ilohiy yaratuvchining o'zaro bog'liqligi haqidagi xulosalar chiqarila boshlandi:

- xudo islom ilohiyoti nuqtai nazaridan barcha mavjud narsalarning harakatlantiruvchi va doimo o'zgartiruvchi oliy kuchdir. Ammo, yaratgan narsalarini bilish bandaning vazifasidir.

- xudo borliqni birinchi asoschisi, ya'ni uning yaratgan va harakatga keltirgan, keyinchalik esa uning harakatlari va o'zgarishlariga aralashmaydi. Koinotni sababchisi va uni harakatlantiruvchi asos tabiat bilan o'zaro aloqadorlikda bo'ladi. YA'ni, deistik qarashlar vujudga kela boshladi.

Shuningdek, o'rta asrlar Sharq allomalarining gnoseologik va teologik qarashlari rivoji, fikriy taraqqiyoti bag'rikeng ijtimoiy muhit va fikrlar hilma hillikni qadrlanishi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Bu davrda har qanday fikr qadrlangan va barcha ilmlarni faoliyati uchun sharoit va imkoniyatlar yaratilgan. Islomiy ilmlar va dunyoviy ilmlarning uyg'unligi, hamkorligi, bir birini tushunishi va hurmat qilishi asosida kuchli va ilmiy hamjamiyatlar shakllanadi va gnoseologik-teologik qarashlar rivojlandi.

ADABOYITLAR RO'YXATI

1. Кедров Б. М. Классификация наук. В 3-томах. –Москва: Мысль, 1961-1965, –С. 52.
2. Хотамий С. М. Ислом тафаккури тарихидан.–Тошкент.: Минҳож. 2003. –Б.56.
3. Йўлдошев С. Антик фалсафа. –Бишкек.: Учқун, 1999. –Б.58-63.
4. Мовардий, Абул Ҳасан. Дунё тва дин одоби. –Тошкент.: "Hilol-Nashr", 2017. –Б. 42.
5. Хайруллаев М. Уйғониш даври ва Шарқ мутафаккирлари. –Тошкент.: Ўзбекистон, 1971. –Б. 123.
6. Гафуров Б. Касимжанов А. Аль Фараби в истории культуры. –Москва.: Наука. 1975. –С. 74.
7. Аль Фараби О разуме и науке. Алма-Ата.: Наука. 1975. –С. 7.
8. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. –Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. –Б.183-184.
9. Фалсафа. Қисқача изоҳли лугат. Муаллифлар Абдуллаева М.Н., Абдурашидов М. ва б. – Тошкент.:Шарқ, 2004. –Б.384.
10. Хайруллаев М.М. Абу Наср аль-Фараби.- Москва. Наука. 1982.-С.102.
11. Хайруллаев М.М. Абу Наср Форобий//Маънавият ўлдузлари: (Марказий Осиёлик машхур сиймолар, алломалар, адилар).- Тошкент.: А. Қодирий номидаги халқ мероси нашр., 1999.-Б.65.
12. Аль-Фараби. Афоризмы государственного деятеля. // Социально-этические трактаты. -С. 266.
13. Камилов А.Ш. Физические труды ар-Рази и Ибн Сины (Ар-Розий ва Ибн Синонинг физикага оид асарлари).–Душанбе, 1991. –С.104.
14. Абу Райхон Беруни. Избранные произведения (Танланган асарлар). Том 1. –Ташкент., 1957. –С.288.
15. Газзолий, Абу Ҳомид Мұхаммад ибн Мұхаммад. Ихё улум ад-дин. Таржимон Мубашшир Аҳмад. – Тошкент: Ислом университети. 2014. –Б.31-32.
16. Кули-Заде Зумруд Аликули кизи, Закономерности развитие восточной философии XII-XIII вв. Баку, «Элм», 1983, -С.40-42.
17. Уинтер Т.Ж. XXI асрда ислом. –Тошкент.: Шарқ. 2005. –Б.25.